

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim

2025/2026- o'quv yili boshiga


- I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, kasbiy ta'lim tashkilotlari turlari maqbullashtirilgan: professional maktablar va kollejlar negizida texnikumlar, shuningdek, maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni **91 tani** tashkil etgan va so'nggi uch yil davomida o'zgarishsiz qolgan.

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Texnikumlar soni esa, aksincha, 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **2,6 barobarga**, yoki **440 taga** oshgan va 2025/2026- o'quv yili boshiga **712 tani** tashkil etgan. Mazkur o'zgarishlar kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarining maqbullashtirilganligi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ilgari o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy sonida hisobga olingan professional maktablar va kollejlarda texnikumlar hamda boshqa ta'lim tashkilotlariga aylantirilgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025/2026- o'quv yili boshiga, birlik)

| | Akademik litseylar | | Texnikumlar | |
|--------------------------|--------------------|-----------------------------|-------------|-----------------------------|
| | Jami | umumiy soniga nisbatan % da | Jami | umumiy soniga nisbatan % da |
| O'zbekiston Resp. | 91 | 100 | 712 | 100 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 4 | 4,4 | 53 | 7,4 |
| <i>viloyatlar:</i> | | | | |
| Andijon | 6 | 6,6 | 69 | 9,7 |
| Buxoro | 5 | 5,5 | 47 | 6,6 |
| Jizzax | 3 | 3,3 | 36 | 5,1 |
| Qashqadaryo | 7 | 7,7 | 71 | 10,0 |
| Navoiy | 3 | 3,3 | 27 | 3,8 |
| Namangan | 6 | 6,6 | 53 | 7,4 |
| Samarqand | 10 | 11,0 | 70 | 9,8 |
| Surxondaryo | 4 | 4,4 | 57 | 8,0 |
| Sirdaryo | 3 | 3,3 | 26 | 3,7 |
| Toshkent | 4 | 4,4 | 57 | 8,0 |
| Farg'ona | 5 | 5,5 | 66 | 9,3 |
| Xorazm | 4 | 4,4 | 43 | 6,0 |
| Toshkent sh. | 27 | 29,6 | 37 | 5,2 |

Akademik litseylarning eng ko'p soni Toshkent shahri (**27 ta**), Samarqand (**10 ta**) va Qashqadaryo (**7 ta**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlar soni bo'yicha esa Qashqadaryo (**71 ta**), Samarqand (**70 ta**) va Andijon (**69 ta**) viloyatlari yetakchilik qilgan.

Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylarning eng kam soni Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlarida qayd etilgan bo'lib, **har birida 3 tadan** bo'lgan. Texnikumlarning eng kam soni ham Sirdaryo (**26 ta**), Navoiy (**27 ta**) va Jizzax (**36 ta**) viloyatlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Mamlakatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha umumiy o'sish kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **73,6 ming nafarga**, yoki **34,7 % ga** oshgan va **285,9 ming nafarni** tashkil etgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni (tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **0,2 ming nafarga**, yoki **1,0 % ga** oshgan va **19,3 ming nafarni** tashkil etgan. Yuqorida qayd etilgan tarkibiy o'zgarishlar munosabati bilan texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa oldingi o'quv yiliga nisbatan **5 barobarga**, yoki **213,7 ming nafarga** oshgan va **266,6 ming nafarga** yetgan.

Qabul qilingan o'quvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi (2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

| | Akademik litseylar | | | Texnikumlar | | |
|--------------------------|--------------------|-------------|----------------|--------------|--------------|----------------|
| | jami | qiz bolalar | o'g'il bolalar | jami | qiz bolalar | o'g'il bolalar |
| O'zbekiston Resp. | 19,3 | 8,2 | 11,1 | 266,6 | 121,2 | 145,4 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 0,9 | 0,4 | 0,5 | 14,7 | 6,5 | 8,2 |
| <i>viloyatlar:</i> | | | | | | |
| Andijon | 1,2 | 0,5 | 0,7 | 26,4 | 11,7 | 14,7 |
| Buxoro | 1,1 | 0,5 | 0,6 | 17,7 | 8,0 | 9,7 |
| Jizzax | 0,8 | 0,3 | 0,5 | 14,8 | 7,7 | 7,1 |
| Qashqadaryo | 1,4 | 0,5 | 0,9 | 29,7 | 13,2 | 16,5 |
| Navoiy | 0,6 | 0,3 | 0,3 | 8,8 | 4,0 | 4,8 |
| Namangan | 1,4 | 0,6 | 0,8 | 23,3 | 9,8 | 13,5 |
| Samarqand | 2,1 | 0,8 | 1,3 | 26,8 | 12,0 | 14,8 |
| Surxondaryo | 0,7 | 0,3 | 0,4 | 18,1 | 7,8 | 10,3 |
| Sirdaryo | 0,5 | 0,2 | 0,3 | 7,3 | 3,4 | 3,9 |
| Toshkent | 0,6 | 0,3 | 0,3 | 18,7 | 8,5 | 10,2 |
| Farg'ona | 1,2 | 0,6 | 0,6 | 34,1 | 15,2 | 18,9 |
| Xorazm | 0,9 | 0,4 | 0,5 | 12,8 | 5,5 | 7,3 |
| Toshkent sh. | 5,9 | 2,5 | 3,4 | 13,4 | 7,9 | 5,5 |

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilarning eng yuqori soni Toshkent shahri (**5,9 ming nafar**), Samarqand (**2,1 ming nafar**), shuningdek Namangan va Qashqadaryo (har birida **1,4 ming nafardan**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilarning eng yuqori qismi esa Farg'ona (**34,1 ming nafar**), Qashqadaryo (**29,7 ming nafar**) va Samarqand (**26,8 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan. Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylarga qabul qilinganlar sonining eng past ko'rsatkichi Sirdaryo (**0,5 ming nafar**), Toshkent va Navoiy (har bir hududda **0,6 ming nafardan**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilar sonining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (**7,3 ming nafar**), Navoiy (**8,8 ming nafar**) va Xorazm (**12,8 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan.

Farg'ona, Navoiy va Toshkent viloyatlarida akademik litseylarga qabul qilingan o'g'il bolalar va qiz bolalar ulushi teng bo'lgan hamda har biri **50,0 % ni** tashkil etgan. Akademik litseylarga qabul qilingan qiz bolalarning eng past ulushi Qashqadaryo viloyatida qayd etilgan bo'lib, **35,7 % ni** tashkil etgan. Toshkent shahrida (**59,0 %**) va Jizzax viloyatida (**52,0 %**) texnikumlarga qabul qilingan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Texnikumlarga qabul qilingan qiz bolalarning eng past ulushi Namangan viloyatida qayd etilgan va **42,1 % ni** tashkil etgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar umumiy sonining o'sishi kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga ularning soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **71,8 ming nafarga**, ya'ni **16,8 % ga** oshgan va **500,3 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni **37,0 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **2,3 ming nafarga**, yoki **6,6 % ga** oshgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni **463,3 ming nafarni** tashkil etgan va **336,2 ming nafarga**, yoki **3,6 barobarga** oshgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

| | Akademik litseylar | | | Texnikumlar | | |
|--------------------------|--------------------|-------------|----------------|--------------|--------------|----------------|
| | jami | qiz bolalar | o'g'il bolalar | jami | qiz bolalar | o'g'il bolalar |
| O'zbekiston Resp. | 37,0 | 15,9 | 21,1 | 463,3 | 219,5 | 243,8 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 1,7 | 0,7 | 1,0 | 25,3 | 11,5 | 13,8 |
| <i>viloyatlar:</i> | | | | | | |
| Andijon | 2,2 | 1,0 | 1,2 | 46,0 | 22,2 | 23,8 |
| Buxoro | 2,2 | 1,0 | 1,2 | 30,3 | 14,5 | 15,8 |
| Jizzax | 1,6 | 0,6 | 1,0 | 24,3 | 13,7 | 10,6 |
| Qashqadaryo | 2,7 | 1,0 | 1,7 | 49,0 | 21,7 | 27,3 |
| Navoiy | 1,2 | 0,5 | 0,7 | 15,1 | 7,1 | 8,0 |
| Namangan | 2,8 | 1,2 | 1,6 | 38,6 | 16,7 | 21,9 |
| Samarqand | 4,0 | 1,6 | 2,4 | 52,4 | 24,8 | 27,6 |
| Surxondaryo | 1,3 | 0,5 | 0,8 | 31,3 | 13,8 | 17,5 |
| Sirdaryo | 0,8 | 0,3 | 0,5 | 12,6 | 6,4 | 6,2 |
| Toshkent | 1,2 | 0,5 | 0,7 | 32,4 | 14,7 | 17,7 |
| Farg'ona | 2,3 | 1,2 | 1,1 | 59,6 | 27,3 | 32,3 |
| Xorazm | 1,7 | 0,9 | 0,8 | 21,3 | 9,3 | 12,0 |
| Toshkent sh. | 11,3 | 4,9 | 6,4 | 25,1 | 15,8 | 9,3 |

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng yuqori soni Toshkent shahri (**11,3 ming**), Samarqand (**4,0 ming**) va Namangan (**2,8 ming**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlardagi o'quvchilarning eng yuqori soni esa Farg'ona (**59,6 ming**), Samarqand (**52,4 ming**) va Qashqadaryo (**49,0 ming**) viloyatlarida kuzatilgan. Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng past soni Sirdaryo (**0,8 ming**), Toshkent va Navoiy (har bir hududda **1,2 ming nafardan**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlarda eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**12,6 ming**), Navoiy (**15,1 ming**) va Xorazm (**21,3 ming**) viloyatlarida kuzatilgan.

Xorazm (**52,9 %**) va Farg'ona (**52,2 %**) viloyatlarida akademik litseylarda tahsil olayotgan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Akademik litseylarda o'qiyotgan qiz bolalarning eng past ulushi Qashqadaryo (**37,0 %**), Sirdaryo va Jizzax (**har birida 37,5 % dan**) viloyatlarida qayd etilgan.

Texnikumlar bo'yicha esa Toshkent shahri (**62,9 %**), Jizzax (**56,4 %**) va Sirdaryo (**50,8 %**) viloyatlarida o'qiyotgan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Namangan (**43,3 %**) va Xorazm (**43,7 %**) viloyatlarida kuzatilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

O'zbekiston Respublikasida 2025- yilda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari umumiy soni **156,6 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan **29,8 ming nafarga**, ya'ni **16,0 % ga** qisqargan.



2025- yilda akademik litseylarning bitiruvchilari soni **15,0 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan. Texnikumlarning bitiruvchilari soni esa **141,6 ming nafarni** tashkil etgan va **88,7 ming nafarga**, ya'ni qariyb **3 barobarga** oshgan.

Bitiruvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025- yil uchun, ming kishi)

| | Akademik litseylar | | | Texnikumlar | | |
|--------------------------|--------------------|-------------|----------------|--------------|-------------|----------------|
| | jami | qiz bolalar | o'g'il bolalar | jami | qiz bolalar | o'g'il bolalar |
| O'zbekiston Resp. | 15,0 | 6,5 | 8,5 | 141,6 | 61,1 | 80,5 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 0,8 | 0,3 | 0,5 | 9,3 | 4,3 | 5,0 |
| <i>viloyatlar:</i> | | | | | | |
| Andijon | 0,9 | 0,4 | 0,5 | 15,7 | 7,9 | 7,8 |
| Buxoro | 0,9 | 0,4 | 0,5 | 7,7 | 3,1 | 4,6 |
| Jizzax | 0,7 | 0,3 | 0,4 | 7,0 | 4,2 | 2,8 |
| Qashqadaryo | 1,0 | 0,3 | 0,7 | 15,9 | 6,7 | 9,2 |
| Navoiy | 0,6 | 0,2 | 0,4 | 5,4 | 2,2 | 3,2 |
| Namangan | 1,1 | 0,5 | 0,6 | 9,3 | 2,8 | 6,5 |
| Samarqand | 1,5 | 0,6 | 0,9 | 18,4 | 8,7 | 9,7 |
| Surxondaryo | 0,4 | 0,2 | 0,2 | 9,3 | 3,7 | 5,6 |
| Sirdaryo | 0,4 | 0,1 | 0,3 | 3,8 | 1,6 | 2,2 |
| Toshkent | 0,3 | 0,2 | 0,1 | 9,0 | 3,5 | 5,5 |
| Farg'ona | 0,9 | 0,4 | 0,5 | 18,6 | 7,3 | 11,3 |
| Xorazm | 0,7 | 0,4 | 0,3 | 6,4 | 2,2 | 4,2 |
| Toshkent sh. | 4,8 | 2,2 | 2,6 | 5,8 | 2,9 | 2,9 |

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Akademik litseylar bitiruvchilarining eng yuqori qismi Toshkent shahri (**4,8 ming nafar**), Samarqand (**1,5 ming nafar**) va Namangan (**1,1 ming nafar**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng yuqori soni esa Farg'ona (**18,6 ming nafar**), Samarqand (**18,4 ming nafar**) va Qashqadaryo (**15,9 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan. Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylar bitiruvchilarining eng past ko'rsatkichlari Toshkent (**0,3 ming nafar**), Surxondaryo va Sirdaryo (har bir hududda **0,4 ming nafardan**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng past ko'rsatkichlari esa Sirdaryo (**3,8 ming nafar**), Navoiy (**5,4 ming nafar**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**5,8 ming nafar**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2025/2026- o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasining o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) umumiy soni **30 090 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **3 375 nafarga**, ya'ni **12,6 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)



¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **3 676 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **162 nafarga**, ya'ni **4,6 % ga** oshgan. Shuningdek, texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining sezilarli o'sishi kuzatilgan. Ularning soni **26 414 nafarni** tashkil etgan va **19 784 nafarga**, ya'ni **4 barobarga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025/2026- o'quv yili boshiga, kishi)

| | Akademik litseylar | | | Texnikumlar | | |
|--------------------------|--------------------|--------------|--------------|---------------|---------------|---------------|
| | jami | ayollar | erkaklar | jami | ayollar | erkaklar |
| O'zbekiston Resp. | 3 676 | 2 116 | 1 560 | 26 414 | 15 626 | 10 788 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 194 | 141 | 53 | 1 666 | 1 160 | 506 |
| <i>viloyatlar:</i> | | | | | | |
| Andijon | 204 | 119 | 85 | 2 526 | 1 439 | 1 087 |
| Buxoro | 222 | 131 | 91 | 1 686 | 1 038 | 648 |
| Jizzax | 146 | 84 | 62 | 1 213 | 656 | 557 |
| Qashqadaryo | 300 | 146 | 154 | 3 055 | 1 680 | 1 375 |
| Navoiy | 134 | 79 | 55 | 992 | 690 | 302 |
| Namangan | 263 | 130 | 133 | 2 161 | 1 182 | 979 |
| Samarqand | 401 | 185 | 216 | 2 931 | 1 524 | 1 407 |
| Surxondaryo | 151 | 77 | 74 | 2 044 | 912 | 1 132 |
| Sirdaryo | 77 | 34 | 43 | 837 | 446 | 391 |
| Toshkent | 105 | 57 | 48 | 1 683 | 1 165 | 518 |
| Farg'ona | 209 | 128 | 81 | 3 150 | 1 947 | 1 203 |
| Xorazm | 165 | 102 | 63 | 1 052 | 741 | 311 |
| Toshkent sh. | 1 105 | 703 | 402 | 1 418 | 1 046 | 372 |

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**1 105 nafar**), Samarqand (**401 nafar**) va Qashqadaryo (**300 nafar**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng yuqori ko'rsatkichlari esa Farg'ona (**3 150 nafar**), Qashqadaryo (**3 055 nafar**) va Samarqand (**2 931 nafar**) viloyatlarida kuzatilgan. Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (**77 nafar**), Toshkent (**105 nafar**) va Navoiy (**134 nafar**) viloyatlarida qayd etilgan. Texnikumlarda esa eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**837 nafar**), Navoiy (**992 nafar**) va Xorazm (**1 052 nafar**) viloyatlarida kuzatilgan.

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) orasida ayollarning eng yuqori ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasi (**72,7 %**) va Toshkent shahrida (**63,6 %**) qayd etilgan, eng past ulushi esa Sirdaryo (**44,2 %**) va Samarqand (**46,1 %**) viloyatlarida kuzatilgan. Texnikumlar bo'yicha Toshkent shahri (**73,8 %**) va Xorazm viloyatida (**70,4 %**) ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Surxondaryo viloyatida esa erkak o'qituvchilar ulushi (**55,4 %**) ayollar ulushidan (**44,6 %**) yuqori bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar **1 o'rta ta'lim shakli** "O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining hisoboti" yillik statistika hisoboti ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining statistika hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni, shuningdek, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistika ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnika bazasi kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO-2011](#)

[MSKO-O 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

